[1] Nabiyev N.I. [2] Avezova S.Yu.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Urganch shahri, O'zbekiston

https://doi.org/10.5281/zenodo.7607842

https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7607842

BOSH MIYADA QON AYLANISHNING O'TKIR BUZILISHI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA "KALGEN 0,15 PNA" PREPARATINI DAVO DAVOMIYLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH.

Dolzarbligi: Hozirgi paytda ekologiya va ijtimoiy omillar ta'sirida bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlar soni ko'payib bormoqda. Ushbu kasalliklar o'limga olib keluvchi sabablar orasida butun dunyo bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lib, nogironlikka olib keluvchi asosiy sababchilaridan biri xisoblanadi. Dunyoning turli mintaqalarida uchrash tezligi har 1000ta bemorda 1-4ta. Rossiyada har yili 400 000 dan ortiq insult ro'yhatga olinadi.

Tadqiqot maqsadi: Bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlarni davolashda patogenetik davo sifatida "Kalgen" preparatini qo'llash va davo davomiyligini baholash;

Material va uslublar: 1. 22 nafar bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlarni tanlab olindi. 2. Bemorlar ikki guruhga bo'lindi. 1-guruh bemorlarni davolashda "Kalgen 0,15 PNA" preparatini qo'llandi. 2-guruh bemorlariga an'anaviy davo (antikovgulyantlar, antioksidantlar, neyrotrop, neyroprotektorlar, metaboliklar) qo'llanildi.

R.Sh.T.Y.I.M. Xorazm filialida bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan 22 nafar bemor tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, ulardan 10 nafari ayollar, 12 nafari erkaklar. Bemorlarning o'rtacha yoshi 40 dan 60 yoshgacha. Ushbu guruhdagi barcha bemorlar umumiy somatik tekshiruvdan o'tkazildi, miyaning kompyuter tomografiyasi (KT), klinik va nevrologik tekshiruv, umumiy qon tahlili, protrombin indeksini (PTI), qon ivish vaqtini (QIV) aniqlash. Klinik va nevrologik tekshiruvlar bemorlarning ushbu guruhida

piramidal yatishmovchilikning gemiparez (14 bemor), gemiplegiya (6 bemor), sensorli afaziya (4 bemor), motor afaziya (8 bemor); shu jumladan qisman (5 bemor), hissiy afaziya shaklida mavjudligini aniqladi. Bu bemorlarning barchasida patologik reflekslar, sezgi funksiyasining buzilishi, shuningdek, xotirani yo'qotish, kognitiv-intellektual funksiyalarining buzilishilari aniqlandi.

Ushbu bemorlar ikki guruhga bo'lib olindi. O'tkir davrining dastlabki 7 kunida 1-asosiy guruhdagi 10 nafar bemorlarga intensiv kompleks terapiya o'tkazildi, shu bilan birga "Kalgen 0,15 PNA" preparati nevrologik holat, qon bosimi, EKG monitoringi nazorati, umumiy qon tahlili, protrombin indeksi (PTI), qonni ivish vaqti nazoratida tomir ichiga fiziologik eritma bilan har kuni 1max tomizildi. 2-nazorat guruhidagi 12 nafar bemorga an'anaviy standart davo muolajalari nazorat ostida ótkazildi. Ko'rsatilgan intensiv terapiya yakunida, takroriy klinik va nevrologik tekshiruv natijasi 1- guruhning barcha bemorlari piramidal tizim funktsiyasining sezilarli darajada tiklanishini ko'rsatdi (falajlangan oyoq-qo'llarning motor faolligini erta tiklash, mushaklarning kuchi va tarangliklari),shu jumladan sensor va kognitiv funktsiyalar sezilarli darajada tiklandi (MILL testi, 10 so'zli xotira testi, Bourdon testi).

Natijalar va muhokama: 1-guruhdagi bemorlarda 2-guruhdagi bemorlarga qaraganda sensor va motor funksiyalaridagi buzilishlar tezroq tiklandi, insult asoratlari kamaydi va umumiy davo intervali qisqardi.

Xulosalar: Ushbu tadqiqotdan shu ma'lum bo'ldiki, bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlarda erta funktsional va organik tiklanishi jarayonida 1- guruhdagi bemorlarda "Kalgen 0,15 NPA" preparatining patogenetik ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. Shu jumladan, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan davo davomiyligi 1.5marta kamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mkb-10 (Kasalliklarning xalqaro tasnifi)
2. Yusupovskaya kasalxonasi

3. Tibbiy va ijtimoiy tajriba asoslari bilan klinik nevrologiya. SPB.
4. Shirokov, E. A. Qatrat, yurak xuruji, to'satdan o'lim. Qon tomir tabiiy ofatlar nazariyasi / E.A. Shirokov. - m .: kvorum, 2010 yil. - 244 v.
5. Vilenskiy, B.S. KITOT: oldini olish, tashxislash va davolash / B.S. Vilenskiy. - Moskva: Oliy maktab, 1999 yil. - 336 c.
Источник: https://hellcomics.ru/uz/chto-oznachaet-mikroinsult-pervye-priznaki-i-osnovnye-simptomy/